

“YUKSAK MA’NAVIYATLI AVLOD-UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI”

Qosimov Ashurali Tojiboyzoda,

Qo’qon davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar fakulteti IV-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola yurtimizda davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e’tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyati, yoshlarning yurtimiz, jamiyatimiz hayotida tutgan o’rni haqida

Kalit so’zlar: uchinchi Renessans, kelajak bunyodkori, “ommaviy madaniyat”, yot g’oyalar, islom sivilizatsiyasi, “tug’ildiyo,bo’g’ildi”

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo’lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo’lishi o’sha davlatda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog’liq. Shu ma’noda, O’zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talabiga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha davlatimiz tomonidan yoshlarga oid 40dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo’lib, 30 dan ziyod xalqaro huquqiy hujjatlarning ratifikatsiya qilinganligining o’zi ham mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tiborning yaqqol misoli bo’la oladi desam yanglishmagan bo’laman.

Yoshlarning ma’nan yetuk barkamol bo’lib voyaga yetishlari Prezidentimiz aytganlaridek uchinchi Renessansga poydevor bo’ladi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Go’zal kunlar kelishini kutma, u tomon qarab yur”, degan umrboqiy satrlari mavjud. O’zbekistondagi yangi Uyg’onish jarayoni ham ayni shu tamoyilga asoslangani, ezgu niyatlar amalga oshayotgani yanada ko’tarinkilik, shijoat baxsh etdi. Bugungi yangi O’zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla- “Uchinchi Renessans” so’zining tag zamirida ulug’ bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin. “ *Biz keng ko’lamli demokratik o’zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O’zbekistonda yangi Uyg’onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o’zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, buyuk ipak yo’lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o’choqlaridan biri bo’lganligini ko’ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir*

qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", degan edi davlatimiz rahbari. Shu o'rinda bitta savol paydo bo'ladi. RENESSANS nima? RENESSANS fransuzcha so'z bo'lib, "yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq" ma'nosini anglatadi. Madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangilanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Birinchi Renessans Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda ro'y berdi. Bu davrda davlatni boshqarish siyosati, yer-suv, soliqlar bilan bog'liq farmonlar chiqarilishi, olimlarga munosabat kishilarda ertangi kunga ishonch uyg'otdi. Al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, al-Farg'oniy, Forobiy, Qoshg'ariy, Zamaxshariy kabi mutafakkirlar, imom Buxoriy, imom Termiziy kabi buyuk muhaddislarning izlanishlari, kashfiyot va beqiyos g'oyalaridan butun dunyo bahramand bo'ldi.

Ona diyorumizdagi ikkinchi Renessans poydevori Amir Temur nomi bilan bog'liq. Sohibqiron bobomiz ikkinchi Renessans homiysi, asoschisi sifatida tarixga muhrlandi. Ikkinchi Renessans davri, o'z navbatida "Islom madaniyatining oltin asri" deya nomlandi. Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Sakkokiy, Jomiy, Navoiy va boshqa olimlar, shoir-u fuzalolar bu yurtning shuhratini dunyoga yoydi. Birinchi Renessansda islom sivilizatsiyasining tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi Renessansda yanada yuksalishga yo'l ochdi. Bir narsaga e'tibor bersak, har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim jihat-davlatning e'tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta'lim-tarbiya ustuvor bo'lgan.

Bugungi O'zbekiston- kechagi O'zbekiston emas. Ha, haqiqatdan ham, shunday: bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Biroz tarixga nazar tashlasak. XIX asrning ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizdan ajraldik, Jadidlarimiz qatag'on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida turg'unlik davri boshlandi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilar edi. Hech kim o'z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning esa boshiga kulfat, turli balolar yog'ilar edi. Mazkur siyosat tufayli qanchadan qancha shoir-u yozuvchilarimiz "tug'ildi-yu, bo'g'ildi".

Xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin esa bundan noxush holatlar barham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladi. Barcha sohalarda xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqqa ruhiy ko'tarilish, kelajakka ishonch paydo bo'la boshladi. Bu holat "milliy tiklanish" deya nom oldi. Bir so'z bilan aytganda mustaqillik xalqimizga o'zligini qaytarib berdi. Bugungi kunda esa, milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga o'tdik. Endi, qandaydir o'zgarish bo'lishi lozim. Axir biz ikkita Renessansni yaratgan buyuk ajdodlarimizning vorislarimiz. Buni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev

Uchinchi Renessansga qadam qo'yish bosqichi, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bosqichi, deb nomlab, quyidagicha ta'riflaydi:

“Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish- Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston-kechagi O'zbekiston emas, Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Iymonli, ma'nau yetuk insonlar Uchinchi Renessans ijodkorlari hisoblanadi. Uchinchi Renessans yaratish bir yoki ikki kishining ishi emas. Uni barpo etish uchun yurtimizning har bir vakili-xoh yosh bo'lsin, xoh katta-barcha barobar harakat qilmog'i lozim. Renessans yaratishga ishonish bilan birga, qattiq harakat ham qilish shart. Bu ham oson kechadigan jarayon emas. Chunki bu jarayonni amalga oshirish uchun dastlab ma'nau barkamol yetuk insonlar qatlamini shakllantirish kerak. Bunday insonlarda tafakkur hissiy ongdan ustun keladi, inson o'zini o'zi idora qila oladi. Uchinchi Renessansni qurishga intilgan iymonli insonlar jamiyati qaror topgan bo'lsa, ular millat, irq, din tanlamaydi, aksincha, bir-biri bilan hamkor, hamnafas bo'lib, yangilanishlar yaratishga bel bog'laydi. Vatan uchun yonib yashaydi Renessansning tayancha ustunlari bo'lmish biz-pedagoglar, tarbiyachilar, o'qituvchi, ziyolilar hamda ota-onalar bunday imkoniyat va shart-sharoitlardan foydalanib, ma'naviyati yuksak avlodni tarbiyalashimiz va iymonni qaror toptirish choralarini ko'rishimiz kerak. Avvalo, har bir shaxs, ayniqsa, yosh avlodni Uchinchi Renessans barpo etilishiga ishontirishimiz kerak.

Bugun Yangi O'zbekistonda “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” bosh g'oyasiga tayanib, uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo'yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu aziz Vatan barchamizniki, deya ko'nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlarini mujassam, iymon-e'tiqodi butun bo'lgan har qanday shaxs targ'ibotchi bo'lishi lozim. Xalqimiz azaldan asrlar davomida dunyo tamadduni rivojiga munosib hissa qo'shgan komil va zakovatli farzandlari, ularning ilmiy-ma'naviy merosi bilan ham boshqa xalqlar orasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lib kelgan. Sharqona ta'lim-tarbiyaga xos or-nomus, odob-axloq, sabr-qanoat, bag'rikenglik, ilm-ma'rifatga intilish, o'zidan yaxshi nom qoldirish kabi fazilatlar bugun har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. To'g'ri, biz Uchinchi Renessansni bir yilda, besh yilda yoki o'n yilda amalga oshiramiz deb bong urmaymiz, lekin mana shu Renessansni yaratadigan avlodni voyaga yetkazishga kuchimiz ham, qudratimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli. Shunday ekan, bizdan faqat mehnat va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish talab qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar ruyxati:

1. www.qalampir.uz
2. www.iiu.uz
3. www.yuz.uz
4. www.hozir.org